

**“XALQ TABOBATI: TARIXI, YUTUQLAR,  
ISTIQBOLLAR”**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari  
to‘plami

28 aprel 2023-yil

Toshkent sh., O‘zbekiston

Сборник материалов Международной научно-  
практической конференции

**«НАРОДНАЯ МЕДИЦИНА: ИСТОРИЯ,  
ДОСТИЖЕНИЯ, ПЕРСПЕКТИВЫ»»**

28 апреля 2023 года

г. Ташкент, Узбекистан

Collection of materials of the International scientific and  
practical conference

**"TRADITIONAL MEDICINE: HISTORY,  
ACHIEVEMENTS, PROSPECTS"**

28 April 2023

Tashkent, Uzbekistan

«Sogʻligʻingizni mustahkamlash uchun turmush tarzingizda quyidagi tamoyillardan qaysi biriga amal qilasiz?» savoliga talabalar 33,5% «Jismoniy tarbiya», «Diyeta» - 1%, «Yurish» - 56,8%, «Hech qaysi tamoyillarga amal qilmayman» - 8,4% javobini tanlashdi.

Ovqatlanish toʻgʻrisidagi savollarga talabalarning 42,6% toʻgʻri va regular ovqatlanishga harakat qilayotganliklari, 10,3% koʻp vaqt tushliksiz qolib ketayotganliklari, 45,6% esa ovqatlanish ratsioni toʻgʻrisida oʻylanib koʻrmaganliklari haqida javob berishdi va boshqa javoblar 1,5%.

«Oʻqish jarayonida jismoniy faolligingiz qanday?» faqatgina 5,9% talabalar hafta davomida intensiv yuklamalarni (trenajor zallarida mashqlar, stadionda yugurish, yotoqxonada maydonlarida sport oʻyinlari) bajarishga harakat qilayotganliklarini belgilashdi. 36,8% respondentlar oʻzlarining koʻp vaqtlarini dars vaqtda va kompyuter oldilarida oʻtirgan holatida oʻtkazishlari haqidagi javobni belgilashdi. 57,3% talabalarida esa oʻrta darajadagi jismoniy faollik.

«Kun davomida qancha vaqt transportda yurasiz?» savoliga talabalar «10-20 daqiqa» - 23,5%, «30-40 daqiqa» - 19,1%, «1 soatdan koʻproq» - 30,9%, «pioda yuraman» - 26,5% javoblarini belgilashdi.

Qanchalik hafta davomida jismoniy faollik bilan bogʻliq boʻlgan ishlarni bajarishga toʻgʻri kelayotganlik savoliga talabalar 51,5% «tez-tez», «kamdan kam» - 10,3%, «Bazida» - 38,2% deb javob berishdi.

Soʻrovnoma talabalarining oʻquv yili davomida kasallanish chastotasi va ularning oʻqish faoliyati toʻgʻrisidagi savollar ham kiritilgan. 69 ta talabalar (63%) yil davomida 1-2 marta, 35 tasi (32%) - 3-5 marta, 5 martadan koʻproq - javobini 6 tasi (5%) belgilashdi. Talabalar oʻz oʻqish faoliyatini qay darajada belgilashadi degan savoliga, faqatgina 38% (42 ta odam) «yaxshi» deb javob berishdi, koʻpchiligi esa 68 tasi (62%) «qoniqarli» deb belgilashdi.

**Xulosa.** Bundan kelib chiqib, olingan natijalar asosida shunday xulosalarni qilish mumkin:

1. Talaba yoshlari orasida yuqori chastotali tarqalgan gipodinamiya va ovqatlanish rejimini buzilishi kuzatilmoqda.
2. Jismoniy faollikni pastligi talabalarda noinfektsion kasalliklarni kelib chiqishiga sabab boʻladi, hamda oʻqish faoliyatini pasayishiga olib keladi.

## **DIABETNING DITIZON MODELIDA UMUMIY LIPIDLAR DARAJASINI OʻSIMLIGI EKSTRAKTINING GIPOLIPIDIMIK HAMDA GIPOXOLESTERINEMIK TAʼSIR SAMARADORLIGI**

Allayeva M.J., Achilov .D.D.

**Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent**

**Mavzusining dolzarbligi.** Hozirgi kunda Galega officinalis L. oʻsimligi ekstraktining gipoglikemik va gipolipidimik taʼsir samaradorligi boʻyicha bir qancha izlanishlar olib borilmoqda. Biroq oʻsimlikning gipolipidimik hamda gipoxolesterinemik taʼsiri kam oʻrganilgan. Shuni inobatga olib, ilk marotaba aynan shu oʻsimlikning qandli diabetning turli modellarida gipolipidimik hamda gipoxolesterinemik xususiyati  $\alpha$ -lipoy kislotasi bilan solishtirilib oʻrganildi.

Qandli diabetning tibbiy-ijtimoiy ahamiyati kasallikning ogʻir asoratlari, yuqori darajadagi nogironlik va oʻlim soni bilan izohlanadi. Shu sababli giperlipidemiya hamda giperxolesterinemiyani davolash maqsadida maxalliy oʻsimliklar asosida olingan dori vositalarining farmako-toksikologik xususiyatlarini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi dorivor echki oʻti ekstrakti glyukoza konsentratsiyasini, glikirlangan gemoglobinni, umumiy xolesterin miqdorini kamaytiradi, yuqori zichlikdagi lipoproteinlarda oqsillar miqdorini oshiradi. Tajribada Galega officinalis L. oʻsimliklari ekstraktining  $\alpha$ -lipoy kislotasi bilan solishtirilib oʻrganildi gipoglikemik taʼsir mexanizmlarini ochib berish, shifoxonagacha boʻlgan tadqiqotlarini amalga oshirish va tibbiyot sohasiga tadbiiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Galega officinalis l. hayvonlar organizmdagi gipolipidemik taʼsiri oʻrganish va uni tibbiyot amaliyotiga tadbiiq etish.

**Tadqiqot usuli va materiali:** Bizning tadqiqotlarimizda diabetning ditizon modelida tajriba quyonlarini qon zardobidagi lipidlar spektriga ta'sirini aniqlash uchun tana vazni 2,4-3,8 kg iborat bo'lgan 15 ta oq sog'lom urg'ochi quyonlar tanlab olindi. Quyonlar 3 tadan 5 guruhga ajratildi. Ularga 25 mg/kg dozada ammiakli suvda eritilgan xolatda quyonlarning quloq venasiga kuniga bir martadan 30 kun davomida yuborildi. Ditizonli diabetning yengil shaklida fitodiabetolning 6 va 60 mg/kg dozalaridagi ta'siri o'rganildi.

**Tadqiqot natijalari:** Ma'lumki, qandli diabetning 1-tipida lipoliz jarayoni kuchayib, qon zardobida triglitseridlar miqdori oshadi. 2-tip qandli diabetda esa semizlik rivojlanadi. Shuning uchun, navbatdagi tajribalarda fitodiabetolning ditizonli diabetda qon zardobidagi lipidlar miqdoriga ta'siri o'rganildi. Ditizonli diabet fonida qon zardobidagi umumiy lipidlar miqdori nazorat guruhiga nisbatan 9,3yo0,2 g/l dan 17,0yo0,6 g/l ga (82,8%; R<0,001), triglitseridlar 2,15yo0,14 mmol/l dan 3,47yo0,21 mmol/l ga (61,4%; R<0,001), xolesterin 1,30yo0,13 mmol/l dan 8,41yo0,19 mmol/l ga (646%; R<0,00001) va  $\beta$ -lipoproteidlar 2,32yo0,17 g/l dan 2,84yo0,11 g/l ga (22,4 %; R<0,05) oshganligi aniqlandi (1-jadvalga qarang). Qondagi xolesterin va triglitseridlar miqdori ham fitopreparat ta'sirida o'rganilgan dozalarda sezilarli darajada nazorat guruxiga nisbatan 44,8 va 47% ga hamda 47,3% va 52,5% ga kamayganligi, qiyosiy preparat  $\alpha$ -lipoy kislota ta'sirida qondagi xolesterin miqdori mos ravishda 54,6% ga kamayganligi, triglitseridlar miqdori esa intakt ko'rsatkichlaridan ham past bo'lganligi kuzatildi. Shuningdek,  $\beta$ -lipoproteinlarning qondagi miqdorini kamaytiruvchi (13,7% va 18,7%) ta'siri bo'yicha ham  $\alpha$ -lipoy kislotadan qolishmaganligi aniqlandi.

***Galega officinalis l dorivor o'simligi bilan davolanganda tajriba quyonlari qon zardobidagi lipidlar spektriga ta'siri (n = 3, Myom)***

Guruxlar Xolesterin, mmol/l	Lipidlar spektri ko'rsakichlari		
	Triglitseridlar, mmol/l	$\beta$ -lipo-proteidlar, g/l	
Intakt	1,30yo0,13 <sup>^^</sup>	2,15yo0,14 <sup>^^</sup>	2,32yo0,17 <sup>^^</sup>
Ditizonli diabet +dist.suv	8,41yo0,19 <sup>^</sup>	3,47yo0,21 <sup>^</sup>	2,84yo0,11 <sup>^</sup>
Ditizonli diabet + $\alpha$ -lipoyev kislota	3,82yo0,33 <sup>^^^</sup>	1,64yo0,12 <sup>^^^</sup>	2,25yo0,23 <sup>^^</sup>
Ditizonli diabet + Galega officinalis l, 6 mg/kg	4,64yo0,25 <sup>^^^</sup>	1,83yo0,15 <sup>^^^</sup>	2,45yo0,22 <sup>^^</sup>
Ditizonli diabet + Galega officinalis l, 60 mg/kg	4,45yo0,12 <sup>^^^</sup>	1,65yo0,21 <sup>^^^</sup>	2,31yo0,05 <sup>^^</sup>

**Izoh:** <sup>^</sup> - intakt xayvonlarda olingan natijalarga nisbatan ishonchlilik darajasi (P<0,05), <sup>^^</sup> - nazorat xayvonlarda olingan natijalarga nisbatan ishonchlilik darajasi (P<0,05).

Galega officinalis l dorivor o'simligi bilan davolanganda umumiy lipidlar miqdori nazorat guruhiga nisbatan 6 va 60 mg/kg miqdorlarda 40% ga (10,2yo0,5 g/l; R<0,01) va 42,3% ga (9,8yo0,4 g/l; R<0,01) sezilarli darajada kamayib, intakt ko'rsatkichlardan farq qilmadi. Qiyosiy gipolipidemik dori vositasi ( $\alpha$ -lipoy kislota) ta'sirida esa uning miqdori mos ravishda 45,3 % ga (9,3yo0,7 g/l; R<0,01) kamaydi.

**Xulosa:** Bizning tadqiqotlarimizdagi diabetning ditizon modeli umumiy lipidlar darajasini 17,0yo0,6 g/l (R<0,001) martaga, triglitseridlarni 1,61 martaga, xlesterin 6,47 martaga va  $\beta$ -lipoproteidlarni 1,22 martaga ishonchli ravishda ortishi bilan tavsiflandi. Galega officinalis l dorivor o'simligi gipolipidemik, gipotriglitseridemik va gipoxolesterinemik xususiyatlarga egadir. Biroq, Galega officinalis l dorivor o'simligi gipoxolesterinemik faolligi  $\alpha$ -lipoykislota faolligidan bir necha marta past bo'ldi. Bundan ko'rinadiki, Galega officinalis l dorivor o'simligi me'da osti bezidan insulin ajralib chiqishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib to'qimalarda yog'lar metabolizmini yaxshilanishiga olib keladi. Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkin, Galega officinalis l dorivor o'simligi qan-

dli diabetning 2-tipida yog'lar almashinuvini buzilishini oldini olish va davolashda tavsiya etish mumkin.

Olingan natijalar ko'rsatishicha, Galega officinalis l dorivor o'simligi 2-tip qandli diabet kasalligida giperglikemiyaning davolash bilan bir qatorda giperlipidemiya hamda giperxolesterinemiyani korreksiyalash uchun ham tavsiya etish mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Fadzelly A.B., Asmah R., Fauziah O. Effects of Strobilanthes crispus tea aqueous extracts on glucose and lipid profile in normal and streptozotocin-induced hyperglycemic rats // Plant Foods Hum. Nutr. -2006. Vol. 61. N 1. -P. 7-12.

2. Vengerovskiy A.I. Gipolipidemicheskoye deystviye ekstraktov lekarstvennykh rasteniy pri eksperimentalnom saxarnom diabete // Ximiko-farmatsevticheskiy jurnal, 2019. -T.53.-№3.-S.40-44

3. Dobordjginidze L.M., Gritsianskiy N.A. Rol statinov v korreksii diabeticheskoy dislipidemii // Сахарный диабет. - 2001. - № 2. - S. 33-37.

4. Orexova Ye.M., Shvets V.I., Gracheva N.I., Klyuchikskiy V.A. Biologicheskiye aktivnyye proizvodnyye mioinozitanolipidnoy prirody i perspektivnost ix ispolzovaniya dlya sozdaniya lekarstvennykh preparatov // Ximiko-farmatsevticheskiy jurnal. M. 1996. № 3. -S. 9-20

### **IBN SINO SHIFOKOR AXLOQI HAQIDA**

Atamuratova Feruza Sadullaevna

#### ***Falsafa fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasiljtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti***

Sharqda tabiblar va ularning mehnatini juda qadrlangan. Xalq orasida tabiblarning obro'si baland bo'lgan. Shuning uchun ham xalq qadimdan tabiblarning faoliyatiga baho berib kelgan. Mana ulardan ayrimlari: "Tabib o'z ishida mahorat, kasallar holiga shafqat kerak. Ahli tib tabiati uyg'un va donishmand, so'ziga payrov va mulozim bo'lsin. So'zida yumshoqlik va diljo'ylik, o'zida hayo va xushfe'llik bo'lsin. Bunday tabibning yuzi bemor ko'ngliga sevinchlidir va so'zi kasalga yoqimlidir, dami bemorlarga davo va qadami xastalarga shifodir. Agar kasbida mohir bo'lsa-yu, ammo o'zi badfe'l, beparvo va qo'pol bo'lsa, garchi bemorga bir tarafdanda voqilur. Lekin savodsiz tabib jallod shogirdidir. U tig' va zahar bilan azoblaydi. Bilimli shifokorlar o'z xalqining faxri va baxti".

Ibn Sino tabib axloqi to'g'risidagi fikrlarida axloqiy fazilatlarni ulug'laydi, axloqiy ilatlarni keskin qoralaydi. U tabiblarning kundalik amaliy ishlaridagi kamtarlik, izzat-hurmat, jasurlik, to'g'rilik, sofdillik kabi xulqiy qoidalarga alohida e'tibor beradi. Abu Ali ibn Sino hayotda ham, asarlarida ham tabiblarni har bir masalaga ilmiy, aqliy, axloqiy yondoshishga, rostgo'y, vijdonli bo'lishga, xullas, insoniylikning eng muhim xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirishga chaqiradi. "Haqiqiy tabib, - degan edi u, - o'zining qadr-qimmatini saqlagan holda davolaydi va besharm hatti-harakatlardan o'zini tiyadi. U mana shu fikrga moyil bo'lsagina kishilarni davolashga borsin. O'z vijdonini davolay olmagan kishi boshqalarni davolayman desa, bunday odam eng yomon odamdir".

Buyuk mutafakkir shifokor axloqida adolat mezoniga ham alohida e'tibor bergan: "Adolat, muhim axloqiy xislat bo'lib, u odamning uch istagi - toqat, jasurlik va donolik bilan paydo bo'ladi, ushbu fazilatlarga ega bo'lgan odam, o'zini yaramas ishlardan saqlay oladi" - deydi Ibn Sino.

Tib qonunlari asarida Ibn Sino bemorga alohida yondashishni talab qiladi: "Bilish kerakki, har bir shaxsning o'ziga xos tabiati bor. Bir xil tabiatli insonlar kamdan-kam yoki umuman uchmasligi mumkin. Davolashda so'z katta ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat nutq madaniyatini, balki xushmuomalalikni, bemorni ko'nglini ko'tarish qobiliyatini, beparvo gap bilan uni xafa qilmaslikni ham anglatadi".

Alloma tabibning axloqiy kategoriyalariga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mo'tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi. U toqat, saxovat va mo'tadillikni insonning hissiy bilimi-